



THE IMPORTANCE OF ORATORY TODAY: POLITICAL ORATORY

Ilkhom Salimov

PhD student

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: ilhomsalimov72@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: rhetoric, politics, media, leader, election, trust, solidarity, development, skill.

Received: 10.04.25

Accepted: 12.04.25

Published: 14.04.25

Abstract: The article discusses the history of the art of oratory, its relevance today, in which areas it is of great importance, in particular, political oratory, the role of oratory in public administration, oratorical leaders in the world, and the methods they used.

NOTIQLIK SAN'ATINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI: SIYOSIY NOTIQLIK

Ilhom Salimov

tayanch doktorant

O'zbekiston Milliy Universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: ilhomsalimov72@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ritorika, siyosat, media, lider, saylov, ishonch, birdamlik, rivojlanish, mahorat.

Annotatsiya: Maqolada notiqlik san'atining tarixi, bugungi kundagi dolzarbligi, qaysi sohalarda katta ahamiyat kasb etishi, xususan, siyosiy notiqlik, notiqlikning davlat boshqaruvidagi o'rni, dunyodagi notiq liderlar, ular qo'llagan metodlar haqida to'xtalib o'tilgan.

ЗНАЧЕНИЕ ОРАТОРСКОГО ИСКУССТВА СЕГОДНЯ: ПОЛИТИЧЕСКОЕ ОРАТОРСКОЕ ИСКУССТВО

Ильхом Салимов

докторант

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Ташкент, Узбекистан

E-mail: ilhomsalimov72@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: риторика, политика, СМИ, лидер, выборы, доверие, солидарность, развитие, умение.

Аннотация: В статье рассматривается история ораторского искусства, его актуальность сегодня, сферы, в которых оно имеет большое значение, в частности, политическое ораторское искусство, роль ораторского искусства в государственном управлении, мировые лидеры ораторского искусства и используемые ими методы.

Kirish: Notiqlik san'ati – insonlarni biror fikrga ishontirish, ularga ta'sir o'tkazish, ilhom berish mahorati bo'lib, qadimdan eng muhim ko'nikmalardan biri sanalgan va hamon o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Bugungi kunda ham siyosat, biznes, ta'lim, media va ijtimoiy tarmoqlar kabi barcha jabhalarda o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Bugungi kunda auditoriyani ishontirish, ularni o'z g'oyalaringizga jalb qilish juda muhim. Taniqli shaxslar, siyosatchilar va tadbirkorlar notiqlik san'ati orqali o'zlarini samarali reklama qilishadi, zamonaviy tilda aytganda, ular o'z shaxsiy imidjlarini yaratishadi. Podkastlar, YouTube chiqishlaridagi nutqlar orqali katta auditoriyani jalb qilish mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarda qisqa, aniq va kuchli nutqlar orqali ta'sir o'tkazish imkoniyati ortib bormoqda.

Siyosatchilar uchun notiqlik san'ati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Nutqning mazmuni va uni qanday yetkazish siyosatchining obro'si, xalqning unga bo'lgan ishonchi va saylov natijalariga bevosita ta'sir qiladi. Bugungi dunyoda mashhur liderlarning barchasi kuchli notiqlik mahoratiga ega.

Muvaffaqiyatli tadbirkorlar investorlarga o'z g'oyalarini tushuntirish uchun notiqlikdan foydalanishadi. Mahsulotni sotish, xaridorni mahsulotning foydali ekanligiga ishontirish, uni doimiy mijozga aylantirishda ham notiqlik asqatadi. Xodimlar bilan muloqot qilishda va kompaniyaning maqsadlarini yetkazishda ham muhim vosita hisoblanadi.

Maktablar, universitetlar, ilmiy hamjamiyatlar, bir so'z bilan aytganda, ta'lim dargohlarini esa notiqlik san'atisiz tasavvur qilib b'lmaydi. Siyosatchi yoki ishbilarmonlar haftada, oyda bir nutq irod etishsa, o'qituvchilar har kuni o'nlab, yuzlab o'quvchilarning qarshisiga chiqishadi.

Notiqlik san'ati bugungi kunda nafaqat siyosatchilar va ma'ruzachilar uchun, balki har bir inson uchun muhim ko'nikma hisoblanadi. Ishontirish, ta'sir o'tkazish va o'z fikrini aniq yetkazish qobiliyati jamiyatdagi muvaffaqiyatning kalitidir. Shu sababli, har bir inson bu san'atni rivojlantirishga e'tibor qaratishi lozim. Bugungi kunda har bir inson, kasbi va faoliyatidan qat'i nazar, notiqlik qobiliyatini rivojlantirishga e'tibor berishi lozim. Chunki notiqlik faqat siyosatchilar yoki tadbirkorlar uchun emas, balki har qanday insonning jamiyatdagi muvaffaqiyatiga ta'sir qiluvchi muhim omildir.

Notiqlik san'ati insoniyat tarixida eng qadimiy va eng muhim ko'nikmalardan biri hisoblanadi. Qadimda davlat arboblari, siyosatchilar, sarkardalar va olimlar aynan notiqlik mahorati orqali o'z g'oyalarini ommaga yetkazgan, ularga ta'sir o'tkazgan va tarix yo'nalishini o'zgartirgan. Bugungi kunda ham notiqlik san'ati siyosat, biznes, ta'lim, ijtimoiy tarmoqlar va shaxsiy rivojlanish kabi turli jabhalarda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda.

Notiqlik san'ati qadimgi Yunonistonda shakllanib, Aristotel, Platon va Demosfen kabi buyuk faylasuflar tomonidan nazariy jihatdan asoslab berilgan. Aristotel o'zining "Ritorika" asarida notiqlikning asosiy tamoyillarini bayon qilib, ishontirishning uch asosiy usulini keltiradi:

Logos – mantiqiy dalillar va asosli fikrlar orqali auditoriyani ishontirish.

Pathos – hissiyotlar va emotsional ta'sir orqali auditoriyani ishontirish.

Ethos – notiqning shaxsiy obro'si va ishonchliligi orqali tinglovchilarning e'tirofiga erishish.

Rimlik notiqalaridan biri bo'lgan Mark Tulliy Sitseron esa notiqlik san'atini yanada takomillashtirib, maqsadga yo'naltirilgan nutq tuzish va ta'sirli chiqishlar qilish bo'yicha ko'plab tavsiyalar bergan.

Har qanday kuchli notiq o'z chiqishida quyidagi jihatlariga e'tibor qaratadi:

Auditoriyani tushunish – nutq tinglovchilarning bilim darajasi, qiziqishlari va ehtiyojlariga mos kelishi kerak.

Aniqlik va ravonlik – mavhum yoki chalkash gaplar tinglovchilarni charchatadi, shuning uchun nutq tushunarli bo'lishi lozim.

Hissiyot va ilhom berish – hissiyot bilan yo'g'rilgan nutqlar ko'proq ta'sir o'tkazadi va auditoriyani qiziqtiradi.

Ishonchli dalillar – fikrni mustahkamlash uchun real misollar, statistikalar va faktlardan foydalanish muhim.

Jest va tana harakati – tana holati va ovoz ohangini to'g'ri boshqarish tinglovchilar e'tiborini ushlab turadi.

Siyosat va notiqlik san'ati ajralmas tushunchalardir. Tarix davomida buyuk yetakchilar, davlat arboblari va siyosatchilar ommaga ta'sir o'tkazish va ularni o'z g'oyalariga ishontirish uchun notiqlik mahoratidan foydalangan. Notiq sifatida xalq oldida nutq so'zlash, ularning qalbiga yo'l topish, jamiyatni ilhomlantirish va strategik maqsadlarga yo'naltirish siyosatchilar uchun eng muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Bugungi global dunyoda ham notiqlik siyosatda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Yaxshi nutq siyosatchining xalq bilan bog'lanishiga yordam beradi, uning obro'sini oshiradi, xalqni

harakatga undaydi va strategik qarorlarni ommaga yetkazishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Notiqlik san'ati qadimgi davrlardan boshlab siyosatning asosiy vositalaridan biri bo'lib kelgan. Qadimgi Yunoniston va Rim davri – Aristotel va Platon kabi faylasuflar notiqlikning siyosatdagi o'rnini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Ayniqsa, yunon notiqdori Demosfen o'zining kuchli nutqlari bilan xalqni harakatga keltirgan. Rim davrida esa Mark Tulliy Sitseron notiqlikning eng yaxshi namunasini ko'rsatib, siyosiy hayotda ta'sirli nutqlarning ahamiyatini isbotlagan. Qirolicha Yelizaveta I, Napoleon Bonapart, Avram Linkoln kabi siyosatchilar notiqlik orqali o'z xalqlarini harakatga undagan va milliy birdamlikni ta'minlashga erishgan. XX asr va undan keyingi davrlarda notiqlik siyosatda yanada muhim o'rin egalladi. Quyidagi siyosatchilar notiqlik mahorati bilan tarixda iz qoldirgan:

Uinston Cherrill – Ikkinchi jahon urushi davrida Angliya xalqiga ilhom bag'ishlagan mashhur nutqlari bilan tanilgan. Uning "We shall fight on the beaches" nutqi bugungi kunda ham eng ilhomlantiruvchi nutqlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Jon Kennedi – Uning "Vatan men uchun nima qildi deb so'rama, men vatanim uchun nima qildim deb so'ra" degan mashhur iborasi millionlab amerikaliklarni ilhomlantirgan.

Martin Lyuter King – "I Have a Dream" nutqi orqali afroamerikaliklarning huquqlarini himoya qilish yo'lida millionlab kishilarning ongiga ta'sir o'tkazgan.

Barak Obama – Uning notiqlik san'ati bilan Amerika jamiyatidagi turli qatlamlarni birlashtira olishi katta muvaffaqiyatga erishishida muhim rol o'ynagan.

Siyosatchilar o'zlarining maqsad va dasturlarini xalq ongiga yetkazish uchun notiqlik san'atidan foydalanadilar. Ishontiruvchi nutqlar orqali siyosatchi o'z tarafdorlarini ko'paytirishi, qarorlarini asoslab berishi va xalqni harakatga undashi mumkin.

Notiqlik san'ati siyosatchilarning ishonchli va ta'sirchan yetakchi sifatida shakllanishiga yordam beradi. Xalq oldida chiroyli va mantiqiy nutq so'zlay oladigan siyosatchilar ko'proq obro'ga ega bo'ladi.

Siyosatchilarning inqirozli davrlarda qilgan nutqlari jamiyatni tinchlantirish va birdamlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Masalan, 2001-yil 11-sentabr voqealaridan so'ng Jorj Bushning xalqqa qilgan murojaati Amerika xalqini birlashtirishda muhim rol o'ynagan.

Siyosiy saylov kampaniyalarida notiqlikning ahamiyati juda katta. Nomzodlarning har bir chiqishi xalqning unga bo'lgan ishonchini oshirishi yoki pasaytirishi mumkin. Saylovoldi nutqlari orqali nomzod o'z tarafdorlarini safarbar qilib, saylov natijalariga katta ta'sir ko'rsatadi.

Siyosatchining ovoz ohangi va uslubi uning ta'sirchanligini belgilaydi. Barak Obama, Jon Kennedi va Margaret Tetcher kabi yetakchilar nutq davomida ovozlarini boshqarib, tinglovchilariga kuchli ta'sir o'tkazishgan.

Siyosatchilar har xil auditoriyalar oldida chiqish qilishlari kerak. Shuning uchun ular har bir auditoriya uchun mos strategiyani tanlashi lozim. Masalan, yosh avlod bilan samimiy va ommaviy ruhda gaplashish, katta yoshlilar bilan esa an'anaviyroq uslubda nutq so'zlash samarali bo'ladi.

Muvaffaqiyatli siyosiy nutqlarda kuchli obrazlar, metaforalar va ta'sirchan jumlar bo'lishi kerak. Masalan, Martin Lyuter King o'zining mashhur nutqida "Mening orzuyim bor" iborasini takrorlash orqali nutqining ta'sirini kuchaytirgan.

Siyosatchining tana tili, qo'l harakatlari va mimikalari uning nutqining ta'sirini oshiradi. Notiqlik texnikalaridan foydalangan holda o'z fikrlarini yanada jonliroq va ishonchliroq yetkazish mumkin.

Siyosatda notiqlik san'ati juda muhim o'rin tutadi. Yaxshi notiq bo'lish siyosatchining xalq bilan bog'lanishiga, uni ilhomlantirishga, strategik maqsadlariga erishishiga va o'z tarafdorlarini oshirishiga yordam beradi.

Bugungi kunda ham notiqlik san'ati siyosiy maydonda hal qiluvchi omil bo'lib qolmoqda. Zamonaviy siyosatchilar notqlikni chuqur o'rganib, ommaga ta'sir o'tkazish usullarini o'zlashtirishi lozim. Notiqlik faqat siyosiy nutq emas, balki yetakchilik, strategik fikrlash va xalqni boshqarish san'ati hamdir.

Siyosiy notiqlik insoniyat tarixining eng qadimiy va murakkab san'atlaridan biridir. Tarix shuni ko'rsatadiki, so'zning qudrati siyosiy jarayonlarning uzviy qismi bo'lib kelgan. Siyosiy notiqlik nafaqat ommani ishontirish va manipulyatsiya qilish vositasi, balki davlat boshqaruvi, mafkuraviy kurash va ijtimoiy birdamlikni shakllantirish vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Siyosiy nutq faqatgina go'zal va jo'shqin iboralar yig'indisi emas. U ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan, chuqur tahliliy asosga ega bo'lgan, tuzilishi jihatidan puxta ishlangan kommunikatsiya shaklidir. Siyosiy notqlikning asosiy tarkibiy qismlarini quyidagicha izohlash mumkin:

Ethos – notiqning obro'si va ishonchliligi. Aristotel e'tosni notiqning shaxsiy obro'-e'tibori, axloqiy qiyofasi va ishonchliligi bilan bog'liq deb ta'riflaydi. Siyosiy yetakchi o'z auditoriyasiga ta'sir o'tkazish uchun avvalo ularning ishonchini qozonishi lozim. Notiqning oldingi faoliyati, shaxsiy fazilatlar, intellektual darajasi va qarashlari uning so'zining ta'sirchanligini belgilaydi.

Pathos – auditoriyaning hissiy holatini boshqarish. Siyosiy nutqning asosiy maqsadi – ommaning hissiyotiga ta'sir qilishdir. Muhimi, pafos faqat ochiq his-tuyg'ular bilan cheklanmasligi, balki xalqning dard-u tashvishlarini ifodalash, umid va qo'rquvlarini uyg'otish, ularni umumiy g'oya atrofida birlashtirishni nazarda tutishi kerak.

Logos – mantiqiy asos va dalillarning ishonchliligi. Har qanday siyosiy nutqning samaradorligi faktlarga, dalillarga va aniq asoslangan mantiqiy tahlillarga tayanishiga bog'liq. Logos notiqning xolislikka intilishini, mavzuni keng qamrovli bilishini va uning fikrlari o'zaro muvofiq ekanligini namoyon etadi.

Muvaffaqiyatli siyosiy notiqlar turli xil ritorik texnikalardan foydalanadilar. Ulardan eng asosiylari quyidagilardir:

Antitezalar – bir-biriga qarama-qarshi tushunchalar orqali fikrning urg'u berilgan holda ifodalanishi. Masalan, "Biz erkinlik yoki zulmat yo'lidan boramiz."

Metaforalar – mavhum tushunchalarni konkret tasvirlar bilan ifodalash, masalan: "Demokratiya – bu mustahkam poydevor ustiga qurilgan binodir."

Ritorik savollar – auditoriyaning fikrlashga undovchi, lekin javob talab qilmaydigan savollar, masalan: "Biz hali ham kechagi xatolarni takrorlashimiz kerakmi?"

Anafora va epifora – Nutqda takrorlanish orqali ta'sir kuchini oshirish texnikalari. Masalan: "Biz kurashamiz, biz harakat qilamiz, biz g'alaba qozonamiz!"

Xulosa qiladigan bo'lsak, siyosiy nutqlar jamoatchilik fikrini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ular nafaqat muayyan davrda dolzarb bo'lgan masalalarni yoritish, balki uzoq muddatli mafkuraviy yo'nalishlarni belgilash vazifasini ham bajaradi. Tarix shuni ko'rsatadiki, yetuk notiqlar nafaqat ommaning kayfiyatini boshqara olgan, balki ularga kelajak sari yo'l ko'rsata olganlar. Siyosiy notqlik – bu nafaqat so'zlash san'ati, balki kuchli mafkuraviy qurol hamdir. U ommani harakatga keltirishi, tarixni o'zgartirishi va jamiyatni yangi davr sari yetaklashi mumkin. Shu boisdan, siyosiy yetakchilarning notqlik mahorati nafaqat ularning shaxsiy muvaffaqiyatini, balki davlat va jamiyat rivojini ham belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Siyosiy notiq faqatgina o'z davrining minbaridan turib gapiradigan shaxs emas, balki kelajak avlodlarning fikrlash tarzini shakllantiruvchi ta'sirchan kuchdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Robert Grin. Mahorat. – Toshkent, Asaxiy Books, 2024
2. M.I.Israil, I.I.Tashmuxamedova. Notqlik san'ati. – Toshkent, Noshir, 2019
3. Arastu. Axloqi kabir. – Toshkent, Yangi asr avlodi, 2015
4. Sitseron. Notqlik san'ati. – Toshkent, Yangi asr avlodi, 2018
5. Andrew Reynolds, Ben Reilly. Comparative Electoral Systems. – Buyuk Britaniya, Oxford University Press, 2002
6. Irina Leshutina. Ritorika. – Toshkent, Yosh kuch, 2021
7. Mitchell Zuckoff. Fall and Rise: The Story of 9/11. – AQSH, Harper Collins Publishers, 2019